



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 5-avgust

183-5-74-Q/25

Nurota tumani hokimligi

Nurota tumani hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-sonli Farmoni, 2018-yil 04-iyuldagi "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3837-sonli qaroriga muvofiq, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada samarali tashkil etish maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 21¹-, 27-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmonining 8-bandiga muvofiq quyidagilar:

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari raislari fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlanishi;

har yili jamoatchilik kengashlarining faoliyati samaradorligi baholanishi va uning natijalari e'lon qilinishi;

jamoatchilik kengashlarining faol a'zolari davlat organining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirib borilishi belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.Quyidagilar:

Nurota tumani hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Nurota tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda- jamoatchilik kengashi) to‘g‘risida nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari etib belgilansin:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta‘minlash, davlat organi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha davlat organi va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, davlat organining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta‘minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog‘lab turadigan “ko‘prik” rolini bajarish;

davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan davlat organining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish;

davlat organi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash;

davlat organi faoliyatining ochiqqligini ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organining rasmiy web-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog‘liq ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta‘minlash;

davlat organi faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat organi faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

davlat organlari xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

5.Jamoatchilik kengashining faol a'zolari qonunchilik hujjatlarida o'rnatilgan tartibda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirib borilsin.

6.Tuman hokimligi axborot xizmati (L.Mansurov) jamoatchilik kengashining faoliyatiga oid ma'lumotlarni belgilangan tartibda tuman hokimligining rasmiy web saytida yoritib borilishini ta'minlasin.

7.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari Sh.Vafojev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev

Nurota tumani hokimining
2025-yil 5-avgustdagi
183-5-74-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Nurota tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik
kengashining
TARKIBI**

T/R	Familiyasi, ismi, sharifi	Lavozimi
1.	A.Ulug'ov	O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Nurota tumani raisi, <i>kengash raisi</i>
2.	Sh.Xomidova	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri, <i>kengash raisi o'rinbosari</i>
3.	M.Bozorov	Nurota tuman "Nogironlar jamiyati" bo'linmasi raisi, <i>kengash kotibi</i>
A'zolari		
4.	G.Bobomurodova	Tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i
5.	R.Sunnatillayev	Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati
6.	L.Mansurov	Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari
7.	U.Usmonov	Tuman Yoshlar ishlar bo'limi boshlig'i
8.	S.Qulmonov	Tuman "Nuroniylar" jamg'armasi raisi
9.	M.Nazarov	O'zbekiston mahallalari uyushmasining Nurota tuman bo'limi boshlig'i
10.	V.Qobilov	Respublika Ma'naviyat va marifat markazining tuman bo'linmasi rahbari

Izoh: Kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda guruh tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.

Nurota tumani hokimining
2025-yil 5-avgustdagi
183-5-74-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Nurota tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Nurota tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashi to'g'risida nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom deb yuritiladi) Nurota tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashining (keyingi o'rinlarda– jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilik kengashi tuman hokimligi (keyingi o'rinlarda- hokimlik deb yuritiladi)ning markaziy apparati huzurida tashkil etiladi va uning faoliyatiga tatbiq etiladi.

4. Jamoatchilik kengashi tuman hokimining qarori bilan tashkil etiladi.

5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

7. Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizom va unga kiritiladigan o'zgartishlar hamda qo'shimchalar tuman hokimining qarori bilan tasdiqlanadi.

2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari

8. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonunchilik hujjatlari talablari ijrosini ta'minlash, tuman hokimligining zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'yobga

chiqarish bo'yicha tuman hokimligi va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

hokimlikning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun tuman hokimligini fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'priq" rolini bajarish;

davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan hokimlikning faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

hokimlik faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

hokimlik faoliyatining ochiqqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

hokimlikning rasmiy veb-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilab borilishini ta'minlash;

hokimlik faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

hokimlikning faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

hokimlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

9. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

hokimlikning faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tuman hokimligiga tegishli takliflar kiritadi;

hokimlikning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

hokimlik faoliyatiga taalluqli uning huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni hokimlikning xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlari loyihalarini, tadbirlar rejalarini va hokimlik faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo'l qo'yilgan ató va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni ko'rib chiqadi;

hokimlik rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o'tkazadi;

hokimlik xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish muammolarini hal etishda ko'maklashadi;

xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo'yicha hokimlik xodimlari o'rtasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etadi;

hokimlikda sog'lom ishchanlik muhitini rivojlantirish, qonuniylikni yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash, xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma'naviy-ma'rifiy kamol toptirish, shuningdek, mazkur sohada ilmiy-ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi; mamlakatda va xorijda keng jamoatchilikni hokimlik faoliyatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta'minlaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif ishlab chiqadi;

hokimlik faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi; hokimlik faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

10. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

hokimlik tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish; hokimlik, uning shahar, tuman hokimliklari va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

hokimlik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot, statistika va boshqa materiallarni belgilangan tartibda olish; hokimlikning qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga hokimlik tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish; tuman hokimligi xodimlarining roziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilan tanishish;

jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda: jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilishi; hokimlik faoliyati bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklavlarga amal qilishi; hokimlik va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

hokimlik va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi; fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

3-bob. Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

12. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a‘zolari kiradi.

13. Jamoatchilik kengashi a‘zoliciga, qoida tariqasida, davlat organida namunali xizmat ko‘rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro‘-e‘tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi. Jamoatchilik kengashi a‘zolarining soni cheklanmagan.

14. Jamoatchilik kengashining tarkibi tuman hokimining qarori bilan har 3 yilda tasdiqlanadi.

15. Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a‘zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin: ular tomonidan jamoatchilik kengashi tarkibidan chiqish to‘g‘risida ariza berilganda;

jamoatchilik kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda; vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

16. Jamoatchilik kengashining tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar shuningdek, ularning aloqa ma‘lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari) va unga kiritilgan o‘zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida hokimlikning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.

17. Jamoatchilik kengashining raisi:

jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

jamoatchilik kengashi a‘zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini muvofiqlashtiradi;

tuman hokimligining rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan jamoatchilik kengashining faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tarkibi bo‘yicha takliflar kiritadi va tuman hokimi (o‘rinbosarlari) bilan kelishadi;

jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan tuman hokimi (o‘rinbosarlari) bilan hamkorlik qiladi;

jamoatchilik kengashining samarali ishini ta‘minlash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik kengashining raisi bo'lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o'rinbosari bajaradi.

19. Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari:

rais yo'qligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

jismoniy va yuridik shaxslar va ularning vakillarini qabul qiladi, shuningdek, jamoatchilik kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

jamoatchilik kengashining samarali ishlarini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Jamoatchilik kengashining kotibi: jamoatchilik kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, tuman hokimligi xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq jamoatchilik kengashi majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

jamoatchilik kengashi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

jamoatchilik kengashining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning jamoatchilik kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi;

jamoatchilik kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

21. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkoni bo'lmagan holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin.

Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Jamoatchilik kengashining a'zolari:

o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun hokimlik tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihalarini tayyorlaydi, ularni jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejaları bajarilishini ta'minlaydi;

hokimlik faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

hokimlik xodimlari, ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni jamoatchilik kengashiga kiritadi;

jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi.

Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejaları asosida har chorakda kamida bir marotaba chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

Jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi shart.

23. Jamoatchilik kengashining majlislariga hududiy davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

24. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

25. Jamoatchilik kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o'rinbosari olib boradi. Jamoatchilik kengashining majlisida tuman hokimi, uning o'rinbosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

26. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

27. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

28. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

29. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda tuman hokimligiga, jamoatchilik kengashi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

30. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin. hokimlik jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

31. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

32. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash tuman hokimligi tomonidan, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq ekanligi tuman hokimi (o'rinbosarlari) tomonidan nazorat qilinadi.

34. Jamoatchilik kengashining va tuman hokimining jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq hujjatlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin